



MAMLAKAT IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA YERGA MULKCHILIK MUNOSABATLARINI TARTIBGA SOLISH OMILLARI

Oybek Abdunazarov,

PhD, Tashkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasida dots.v.v.b.,

Tashkent, O'zbekiston. Email: oabdunazarov84@gmail.com

ORCID: 0009-0001-5384-2733

FACTORS FOR THE REGULATION OF LAND OWNERSHIP RELATIONS IN THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE COUNTRY'S ECONOMY

Oybek Abdunazarov,

PhD, Tashkent State University of Economics

Department "Theory of Economics "

Tashkent, Uzbekistan. Email: oabdunazarov84@gmail.com

ORCID: 0009-0001-5384-2733

Annotatsiya: Ushbu maqolada respublikada yerga mulkchilik munosabatlarining o'zgarishi va uning hozirgi holati, O'zbekistonda yerga mulkchilik munosabatlarini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmi va uning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, respublikada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasining o'zgarishi va unga ta'sir qiluvchi omillar bilan birga yer uchastkasini boshqa subyektlarga vaqtincha foydalanish uchun taqdim etishda yer uchastkalari uchun ijara to'lovini bozor qiymatiga mos ravishda belgilash orqali takomillashtirish mexanizmi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini qurish hamda ularni rekonstruksiya qilish bilan bog'liq xarajatlarini to'laligicha davlat tomonidan qoplab berish tartibi, respublikada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning 2030-yilgacha bo'lgan ko'p variantli prognoz ko'rsatkichlari tahlil qilingan.

Abstract: This article analyzes the changes in land ownership relations in the republic and its current state, the economic

mechanism for regulating land ownership relations in Uzbekistan and its specific features, as well as the changes in the dynamics of agricultural production in the republic and the factors affecting it, the mechanism for improving the provision of land plots for temporary use to other entities by setting the rent for land plots in accordance with the market value, the procedure for full state reimbursement of agricultural producers' costs related to the construction and reconstruction of irrigation and land reclamation facilities, and multi-variant forecast indicators of agricultural production in the republic until 2030.

Kalit so'zlar: mulkchilik, yer, qishloq xo'jaligi, xo'jalik yurituvchi subyektlar, agrar soha, mulkdorlar, fermer, dehqon xo'jaligi.

Keywords: agrarian reforms, agriculture, farming households, investment, ARDL model, land reclamation, water resources, ownership structure, forecasting.

Kirish. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan chuqur institutsional va iqtisodiy islohotlar agrar sohada ham tub o'zgarishlarga sabab

bo'imoqda. Xususan, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantirish, davlat ishtirokini kamaytirish kabi yondashuvlar sohaning taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Qishloq xo'jaligida mulkchilik shakllarining o'zgarishi, fermer va dehqon xo'jaliklarining iqtisodiyotdagi ulushining oshishi, davlat sektorining qisqarishi — bularning barchasi agrar sohaning transformatsiyalashuvi jarayonining asosiy ko'rsatkichlaridir. Shu bilan birga, suv tanqisligi, melioratsiya tizimining eskirganligi, foydalanilmayotgan yerlarning ko'pligi kabi muammolar ham agrar sektorning samaradorligini pasaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo'imoqda. Ushbu tadqiqotda 2000–2023-yillar davomida agrar sohada yuzaga kelgan institutsional o'zgarishlar, ishlab chiqarish tarkibidagi strukturaviy siljishlar, qishloq xo'jaligi yalpi qo'shilgan qiymatining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ekonometrik modellar, xususan ARDL modeli asosida tahlil qilinadi. Shu orqali kelgusi yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlar aniqlanadi hamda mavjud resurslardan yanada samarali foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi. Respublikada agrar sohada olib borilayotgan islohotlar natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlarning tarkibi ham tubdan o'zgardi. Agrar islohotlarning amalga oshirilishida uning institutsional asoslarini yaratish qishloq xo'jaligida quyidagi o'zgarishlarga olib keldi:

- qishloq xo'jaligi obyektlarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini diversifikatsiyasini kengaytirish;- tarmoqda haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantirish borasidagi faoliyatlarni izchillik bilan davom ettirish;

- asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarni takomillashtirish.

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston agrar sektorida olib borilayotgan institutsional islohotlar, mulkchilik shakllarining transformatsiyasi, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish masalalari chuqur o'rganildi. Bunday ilmiy izlanishlarni olib borishda, avvalo, mamlakatda qabul qilingan rasmiy hujjatlar, strategik dasturlar hamda xalqaro va milliy iqtisodiy nazariy adabiyotlar asosiy metodologik manba bo'lib xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qishloq xo'jaligini rivojlantirishga oid farmonlari va qarorlarida (xususan, 2019–2029-yillar uchun Investitsiya dasturi) agrar sohada islohotlarning ustuvor yo'nalishlari, yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari belgilanib, bu yo'nalishdagi siyosatning huquqiy asoslari mustahkamlangan. "Qishloq xo'jaligida foydalanilmayotgan yerlarni iqtisodiy aylanishga kiritish" bo'yicha belgilanayotgan mexanizmlar ushbu hujjatlar orqali asoslab berilgan.

Milliy mualliflar tomonidan yozilgan adabiyotlar, jumladan, A. Xolboevning "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti asoslari" (2021) asarida qishloq xo'jaligi tarmog'ining iqtisodiy samaradorligi, resurslardan foydalanish va mulkchilik shakllarining o'zgarishi batafsil tahlil qilingan. A. Qudratovning "Agrosanoat kompleksini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari" nomli asarida esa agrar ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, investitsion faoliyat va samarali boshqaruv tizimi masalalariga e'tibor qaratilgan. Ushbu manbalar maqolada ilgari surilgan fikrlarni nazariy jihatdan mustahkamlashga xizmat qilgan.

Xalqaro darajadagi iqtisodiy modellar asoslari sifatida Gujarati (2004) tomonidan yozilgan "Basic Econometrics" asari, shuningdek Pesaran, Shin va Smith (2001) tomonidan taklif qilingan ARDL (Autoregressive Distributed Lag) modelining qo'llanishi maqolaning ilmiy asoslanishini kuchaytirdi. ARDL modelining afzalliklari — qisqa va uzoq muddatli tahlillarni birgalikda olib borish imkoniyati — ushbu tadqiqotda prognozlash va sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Shuningdek, Jahon bankinging "Uzbekistan Agriculture Competitiveness

2-jadval. O'zbekistonda mulkchilik shakllari bo'yicha qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o'zgarishi (foizda)¹

Ko'rsatkichlar	2000	2010	2020	2021	2022	2023	2024
Yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti	100	100	100	100	100	100	100
Davlat korxonalarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsuloti	0,9	0,4	0,5	0,6	0,4	0,6	0,8
Fermer va dehqon xo'jaliklarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsuloti	99,1	99,6	99,5	99,4	99,6	99,4	103,5

Olingan natijalariga ko'ra, 2000–2025-yillar mobaynida O'zbekistonda mulkchilik shakllari bo'yicha qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda davlat sektorining ulushi 35,0 foizdan 0,6 foizgacha qisqargan. Shuningdek, amalda davlat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etishni kamaytirib borayotganligini ko'rish mumkin. Tadqiqot davomida hozirgi kunda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 99,4% mamlakat iqtisodiyotning nodavlat sektorida, jumladan, 78,5% dehqon xo'jaliklarida, 3,0% qishloq

Report" (2022) va FAOning agrar sektor bo'yicha analitik hisobotlari O'zbekistonda qishloq xo'jaligi bozorlarini rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish, hamda suv resurslaridan oqilona foydalanish borasida global yondashuvlarni milliy kontekstda tahlil qilish imkonini berdi.

Natijalar. Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqot ishi doirasida tahlil qilinayotgan davrda mulkchilik shakllari bo'yicha qishloq xo'jaligida mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlarida katta o'zgarishlar yuz berganligi kuzatildi. (2-jadval)

xo'jalik korxonalarida, 18,5% fermer xo'jaliklarida yetishtirilayotganligi kuzatildi.

Shuningdek, 2000–2025-yillar mobaynida qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarish asosan dehqon va fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi. Tahlil qilinayotgan yillarda yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotida qishloq xo'jalik korxonalarining ulushi 27,8 foizdan 7,5 foizgacha qisqargani holda, dehqon va fermer xo'jaliklarining yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi ulushi 72,2 foizdan 95,1 foizga qadar ortgan. Fermer xo'jaliklarining yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab

¹ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2/> - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

chiqarishdagi ulushi 2000-yilda 5,5 foizga teng bo'lgani holda, ushbu ko'rsatkich 2023-yilda 30,2 foizni tashkil

etgan. Dehqon xo'jaliklarining ulushi esa 66,7 foizdan 62,3 foizgacha kamaygan (3-jadval).

3-jadval. Yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarishda davlat korxonalar ulushining o'zgarishi (2000–2025-yillarda, foizda)²

Ko'rsatkichlar	2000	2010	2015	2020	2021	2022	2023	2024
Yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti	100	100	100	100	100	100	100	100
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi davlat korxonalar	1,8	2,1	2,4	4,4	5,2	6,9	7,5	7,4
Dehqon xo'jaliklari	58,7	61,6	66,9	67,4	65,5	61,7	62,3	62,0
Fermer xo'jaliklar	39,5	36,3	30,7	28,2	29,3	31,4	30,2	30,6

Bundan tashqari, 2000–2025-yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish sur'atlari pasayish tendensiyasiga ega. Bu esa fermer xo'jaliklari faoliyatida transformatsiyalashuv jarayonining yuzaga kelishini taqozo etadi.

Bunda mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi zarar ko'rib ishlovchi va past rentabelli shirkat xo'jaliklarining fermer xo'jaliklariga aylantirilishi hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda uy xo'jaliklarining ustun mavqega ega bo'lishi boshqa Hamdo'stlik mamlakatlari uchun ham xosdir.

$$D(\ln y) = -0.783(1.39 \ln x_1 + 2.44 \ln x_2 + 2.04 \ln x_3) + 1.07D(\ln x_1) + 1.98$$

Mazkur tadqiqot ishida ARDL modeli bo'yicha quyidagi xulosalar olindi:

Qishloq xo'jaligining uzoq muddatda tanlangan omil belgilar, ya'ni qishloq xo'jaligiga sarflangan investitsiya, qishloq xo'jaligi bilan band aholi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti bilan kuchli bo'g'lanishga ega hamda mazkur omil belgilar qishloq xo'jaligi yalpi qo'shilgan qiymatini yillik o'rtacha 0.78 foiz yaxshilanib borishiga sabab bo'ladi.

ARDL model tadqiqotlarda qisqa va uzoq muddatli dinamikani yoki ushbu o'zgaruvchilar orasidagi aloqalarni tahlil qilish imkonini beradi³. Shuningdek, u bitta o'zgaruvchidagi o'zgarishlar nafaqat yaqin vaqt ichida, balki uzoq vaqt oralig'ida ham boshqalarga qanday ta'sir qilishini tushunish imkonini beradi. Respublikada qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish darajasi bilan bo'liq statistik ma'lumotlar tahlili natijasida ARDL (1,1,0,0) modeli quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi.


uzoq muddatda boshqa omil belgilar o'zgarmagan holda qishloq xo'jaligiga sarflangan investitsiyaning 1% ortishi qishloq xo'jaligi YQQni 1.39 foiz qo'shimcha ortishini ta'minlaydi.

qishloq xo'jaligida band aholi 1% ortishi boshqa ko'rsatkichlar o'zgarmagan holda uzoq muddatda QXYQQ ni 2.44 foizga qo'shimcha ortishiga sabab bo'ladi.

² <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2/> - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

qishloq xo'jaligi mahsulotlar eksporti 1 % qo'shimcha ortishi QXYQQni uzoq muddatda boshqa omil belgilar o'zgarmagan holda qo'shimcha 2.04 foiz ortishiga olib keladi.

Yuqoridagi modelga asosan, O'zbekiston Respublikasida 2024–2030-yillardagi prognoz ko'rsatkichlari aniqlandi. (1-rasm)



1-rasm. 2024–2030-yillardagi prognoz ko'rsatkichlari³

Qishloq xo'jaligi YQQ hajmi joriy narxlar hisobida tanlangan omil belgilar investitsiya, bandlik va eksport ta'sirida hamda ARDL (1,1,0,0) optimal modeli va ARIMA (1,1,0) modeliga asosan 2030-yilga borib 407640.5 mlrd so'mga yetadi.

Munozara. Tadqiqotlar hozirgi kunda agrar tarmoqda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar orasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonida foydalanilmayotganligini ko'rsatdi.

Bu borada "Qishloq xo'jaligida foydalanilmayotgan yerlarni foydalanishga kiritishda irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish uchun talab etilayotgan mablag'lar 2019–2029-yillardagi Investitsiya dasturi doirasida davlat byudjetidan melioratsiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish uchun ajratiladigan mablag'larning 5 foizi miqdorida qo'shimcha ravishda yo'naltirish

belgilangan".⁵ Shuningdek, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining yerlarni foydalanishga kiritishda irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish bilan bog'liq xarajatlarini Davlat byudjetidan qoplash tasdiqlangan sxemaga muvofiq amalga oshirilishi belgilangan. Nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida 2017–2022-yillar mobaynida Davlat byudjetidan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni foydalanishga kiritishda sarflangan mablag'lar tarkibini quyidagi jadvaldan (4-jadval) ko'rish mumkin.

4-jadval. 2022–2025-yillar mobaynida Davlat byudjetidan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni

³ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2/> - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

foydalanishga kiritishga yo'naltirilgan mablag'lar⁴

T/r	Tarmoqlar	Amalda
1.	Irrigatsiya tizimlari	2 172,8 kilometr
2.	Lotokli sug'orish tarmoqlari	368,8 kilometr
3.	Gidrotexnik inshootlar	347 dona
4.	Umumiy suv uzatish hajmiga ega bo'lgan nasos stansiyalari	83,7 kub m/sek
5.	Suv omborlari	Umumiy hajmi 1 581,3 million kub/m
6.	Boshqa obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilish uchun	3,2 trillion
Jami 1,7 mln.ga ortiq sug'oriladigan maydonlarning suv ta'minotini yaxshilandi		

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jaligida foydalanilmayotgan yerlarni foydalanishga kiritishda irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish bilan bog'liq xarajatlarning ma'lum qismini qoplab berish yuzasidan bir qator amaliy ishlar bajarilgan.

Ta'kidlash joizki, ushbu davr ichida melioratsiya obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlariga 2,5 trillion so'm ajratilib, 2,5 million gektar sug'oriladigan maydonlarning meliorativ holati yaxshilanishiga, yer osti suvlarining barqarorligi ta'minlanishiga yo'naltirildi.

Lekin shunga qaramay, tadqiqot davomida O'zbekistonda yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan islohotlarni izchil amalga oshirish, yer va suv resurslari, shuningdek, respublikada qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish unumdorligini oshirishga qaratilgan qator tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligi ham kuzatildi. Jumladan, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish borasida Davlat dasturiga muvofiq bir qator chora-tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlarni quyida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin. (5-jadval).

⁴ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2//>- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

5-jadval⁵. 2022–2025-yillar davrida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish Davlat dasturiga muvofiq amalga oshirilgan ishlar.

T/r	Tarmoqlar	Bajarilgan ishlar
1.	Kollektor-drenaj shoxobchalari	5443 kilometr
2.	Tik drenaj quduqlarini qurish va rekonstruksiya qilish	751 ta
3.	Kollektor-drenaj tarmoqlarini	72,2 ming kilometr
4.	Tik drenaj quduqlari	2907 ta
	Meliorativ nasos stansiyalari va boshqalarni ta'mirlash hamda qayta tiklash – Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi mablag'larini	75 ta
5.	Irrigatsiya tizimlari	1745 kilometrdan ortiq
6.	Novli sug'orish shoxobchalari	388 kilometr
7.	Gidrotexnika inshootlari	135 ta

Shu bilan birga, tadqiqotlar sohada sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minlash bo‘yicha qabul qilingan kompleks chora-tadbirlarga qaramay, mavjud 4487 kilometr irrigatsiya tizimi kanallari, 5250 kilometr sug‘orish tarmog‘i, 3636 ta gidrotexnika inshooti, 495 ta nasos stansiyalari (agregatlari) va 1500 ta tik sug‘orish quduqlari, shuningdek, 7500 kilometr kollektor drenaj shoxobchalari, 13 ta meliorativ nasos stansiyalari hamda 185 ta tik drenaj quduqlarini rekonstruksiya qilish va qurish lozimligini ko‘rsatdi.

Shuningdek, 167 ming gektar sug‘oriladigan yerlarning suv ta’minoti nihoyatda past darajada qolmoqda, 1957 ming gektar sug‘oriladigan yerlarni turli darajada sho‘r bosgan, shu jumladan, 542 ming gektari o‘rtacha va 99 ming gektari kuchli sho‘r bosgan yerlardir. Bu yerlarni foydalanishga kiritish, ununmdorligini oshirish talab etiladi.

Mamlakatda 2022–2025-yillar mobaynida 1,7 million gektardan ortiq sug‘oriladigan maydonlarning suv ta’minoti hamda 2,5 million gektar maydonlarning meliorativ holatini yaxshilashga

yo‘naltirilgan islohotlar amalga oshirildi. Biroq, global iqlim o‘zgarishi natijasida, so‘nggi yillarda davriy ravishda kuzatilayotgan suv tanqisligi va ichki irrigatsiya tarmoqlarining asosiy qismi yaroqsiz holatga kelganligi sug‘oriladigan ekin yerlarining meliorativ holati yomonlashishiga va yillar davomida foydalanishdan chiqib ketishiga olib kelmoqda.

Tadqiqot muallifi fikricha, mamlakatda yillar davomida irrigatsiya va melioratsiya holati yomonlashuvi natijasida foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni bosqichma-bosqich qayta foydalanishga kiritish, yerosti suv zaxiralaridan samarali foydalanish, suv tejevchi texnologiyalarni joriy etish hamda ichki irrigatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish orqali suv yo‘qotilishini kamaytirish, shuningdek, bu ishlarda salohiyatli investorlar ishtirokini ta’minlash maqsadida qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish tizimini ishlab chiqish zarur.

Shuningdek, investitsiyaviy shartnoma yoki davlat-xususiy sheriklik bitimlari asosida O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan har bir

⁵ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2/> - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

gektar qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni foydalanishga kiritish bilan bog'liq xarajatlari to'liq qoplab berilsa; investitsiyaviy shartnoma yoki davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda nazarda tutilgan hollarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash

davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan yerlarning suv ta'minoti tizimlarini qurish, rekonstruksiya qilish uchun jalb etilgan kreditlarning bir gektar hisobiga 40 million so'mdan oshmaydigan qismiga tijorat banklari tomonidan belgilangan foiz stavkasining 20 foiz miqdorida qoplab berilsa;

yer maydonlari investitsiyaviy shartnoma yoki davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimini imzolab, so'ng qonun hujjatlarida vakolat berilgan davlat organining qaroriga asosan ajratib berish tizimi yaratilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasida agrar sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida qishloq xo'jaligida mulkchilik shakllari va ishlab chiqaruvchilarning tarkibi tubdan o'zgardi. Davlat sektorining ulushi keskin qisqargan bo'lib, dehqon va fermer xo'jaliklari asosiy ishlab chiqaruvchilar sifatida shakllandi.

Qishloq xo'jaligi YQQ hajmiga ta'sir qiluvchi omillarni ARDL modeli orqali tahlil qilish natijalari, investitsiya, bandlik va eksportning qishloq xo'jaligiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatdi. Jumladan, uzoq muddatda investitsiyaning 1 foiz ortishi YQQni 1.39 foizga, bandlik 2.44 foizga, eksport esa 2.04 foizga oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish zarurati mavjud.

Sug'oriladigan yerlardagi meliorativ holatning yomonlashuvi, irrigatsiya tizimlarining eskirganligi va suv tanqisligi mavjud muammolardandir. Bu muammolarni hal qilish uchun davlat byudjeti mablag'lari, davlat-xususiy sheriklik asosida investorlarni jalb etish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ichki irrigatsiya tizimlarini rekonstruksiya qilish orqali suv yo'qotilishini kamaytirish lozim. Shuningdek, foydalanuvdan chiqqan yerlarni bosqichma-bosqich iqtisodiy aylanishga kiritish orqali qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin. Tadqiqotda ilgari surilgan takliflar agrar sohani yanada modernizatsiya qilish va barqaror rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va davlat dasturlari. (2017–2024-yillar).
2. Qishloq xo'jaligi vazirligi statistik ma'lumotlari. (2025).
3. "O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo'lgan qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi" – TDIU, 2020.
4. Xolboev A., "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti asoslari", Toshkent, 2021.
5. Qudratov A., "Agrosanoat kompleksini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari", Toshkent, 2022.
6. Narzikulov A., "O'zbekiston agrar islohotlarining institutsional tahlili", Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, 2024, №4.
7. Gujarati D. N., "Basic Econometrics", McGraw-Hill, 2004.



8. Pesaran, M. H., Shin, Y., & Smith, R. J. (2001). Bounds testing approaches to the analysis of level relationships. *Journal of Applied Econometrics*, 16(3), 289–326.

9. Jahon banki hisobotlari: "Uzbekistan Agriculture Competitiveness Report", 2022.

10. FAO (Food and Agriculture Organization) – Uzbekistan Agrarian Sector Reviews,

2025